
Joylarda ma'naviyat tadbirlari davom etmoqda

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish maqsadida Quva tumanidagi 7-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari hamda Novkent mahalla fuqarolar yig'ini faollari ishtirokida "Jaholatga qarshi ma'rifat" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir va davra suxbatlari o'tkazildi.

Ushbu tadbirda Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi rahbari M.Jalolov, Din ishlari bo'yicha qo'mitaning tuman bo'yicha bosh mutaxassisi F.Aminovlar hamda 120 nafardan ortiq o'quvchilar, pedagog xodimlar va mahalla faollari ishtirok etishdi. Tadbir davomida "Zalolatga dalolat qilayotganlar" nomli videofilm namoyish etildi.

2024-04-01 15:43:09